

JIZZAX VILOYAT  
STATISTIKA BOSHQARMASI

JIZZAX VILOYATINING  
DEMOGRAFIK HOLATI

2024- yil  
*yanvar-iyun*



## JIZZAX VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2024- yil 1- iyul holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Jizzax viloyatida 2024- yil 1- iyul holatiga doimiy aholi soni **1521,9** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **14,5** ming kishiga yoki **101,0 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **714,2** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **46,9 %**), qishloq aholisi soni **807,7** ming kishi (**53,1 %**)ni tashkil etdi.

### Doimiy aholi soni

**1521,9**ming  
kishi

### Tabiiy o'sish

**+15,6**ming  
kishi

### Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi


#### Shahar

**46,9 %**

#### Qishloq

**53,1 %**

### Aholining tabiiy harakati, ming kishi



## Jizzax viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar


2024- yil yanvar-iyun



## Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024- yil 1- iyul holatiga

## Erkaklar




50,5%




768,2 ming kishi

## Ayollar



49,5%



753,7 ming kishi


## Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1- iyul holatiga, ming kishi

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1490,9</b>	<b>1 521,9</b>	<b>102,2</b>
<i>hududlar:</i>			
Jizzax sh.	193,9	197,8	102,0
Arnasoy	48,3	49,1	101,7
Baxmal	168,5	172,3	102,3
G'allaorol	184,8	188,7	102,1
SH.Rashidov	239,8	245,7	102,5
Do'stlik	69,4	70,4	101,4
Zomin	177,3	181,6	102,4
Zarbdor	93,6	95,6	102,1
Mirzacho'l	54,9	55,9	101,8
Zafarobod	53,1	54,1	101,9
Paxtakor	80,1	81,6	101,9
Forish	97,6	99,1	101,5
Yangiobod	29,6	30,0	101,4

## Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2024- yil 1- iyul holatiga



2024- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, Jizzax viloyat doimiy aholisi sonining **33,6 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **55,6 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **10,8 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

## QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR

**Ma’lumot uchun!:** tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.




2024- yil yanvar-iyun oylarida **18,6** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **24,7** promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2023- yilga nisbatan **2,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilda **26,8** promilleni tashkil etgan).

### Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti


2024- yil yanvar-iyun, kishi

	2023- yil	2024- yil	O’sish sur’ati, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>19700</b>	<b>18619</b>	<b>94,5</b>
<i>hududlar:</i>			
Jizzax sh.	2637	2132	80,8
Arnasoy	506	524	103,6
Baxmal	2482	2388	96,2
G‘allaorol	2556	2535	99,2
SH.Rashidov	3428	3323	96,9
Do‘stlik	830	745	89,8
Zomin	2485	2412	97,1
Zarbdor	1202	1216	101,2
Mirzacho‘l	482	511	106,0
Zafarobod	643	579	90,0
Paxtakor	1061	898	84,6
Forish	1074	1076	100,2
Yangiobod	314	280	89,2



## Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-iyun



2024- yilning yanvar - iyun oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarda 1 nafar va egizak tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi:


- 1 nafar – **97,8%**
- 2 nafar – **2,2%**
- 3 nafar va undan ortiq – **0,0%**

## VAFOT ETGANLAR

2024- yilning yanvar-iyun oylarida **2 962** ta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **3,9** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,5** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar- iyun oylarida **4,4** promille bo‘lgan).


## O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-iyun, kishi



## Vafot etganlarning asosiy o‘lim sabablari


2024 yil yanvar- iyun, % da



2024- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **53,4** % i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,4** % i – o’simtalardan, **9,1** % i – nafas olish a’zolari kasalliklaridan, **8,0** % i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,9** % i – ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, **1,2** % i – yuqumli va parazitar kasalliklardan, **14,0** % i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

**Hududlar kesimida o‘lganlar soni va koeffitsiyenti**
*2024- yil yanvar-iyun, kishi*

	2023- yil	2024- yil	O’sish sur’ati, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>3248</b>	<b>2962</b>	<b>91,2</b>
<i>hududlar:</i>			
Jizzax sh.	382	406	106,3
Arnasoy	129	75	58,1
Baxmal	381	345	90,6
G‘allaorol	395	430	108,9
SH.Rashidov	591	438	74,1
Do‘stlik	159	117	73,6
Zomin	353	342	96,9
Zarbdor	197	171	86,8
Mirzacho‘l	75	96	128,0
Zafarobod	148	116	78,4
Paxtakor	168	170	101,2
Forish	186	191	102,7
Yangiobod	84	65	77,4




## **QAYD ETILGAN NIKOHLAR**

2024- yilning yanvar- iyun oylarida **3518** kishi nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **4,7** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan minus **0,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar- iyun oylarida **4,8** promille bo‘lgan).

### **Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti**

*2024- yil yanvar-iyun, kishi*

	<b>2023- yil</b>	<b>2024- yil</b>	<i>O’sish sur’ati, % da</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>3563</b>	<b>3518</b>	<b>98,7</b>
<i>hududlar:</i>			
Jizzax sh.	655	538	82,1
Arnasoy	91	79	86,8
Baxmal	409	402	98,3
G‘allaorol	488	451	92,4
SH.Rashidov	521	571	109,6
Do‘stlik	147	137	93,2
Zomin	420	437	104,0
Zarbdor	193	211	109,3
Mirzacho‘l	89	107	120,2
Zafarobod	115	107	93,0
Paxtakor	205	232	113,2
Forish	187	190	101,6
Yangiobod	43	56	130,2




## NIKOHDА AJRALISHLAR

2024- yil yanvar- iyun oylarida **841** kishi nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,1** promillega kamayish kuzatilgan (2023- yil yanvar- iyun oylarida **1,2** promille bo‘lgan).

### Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti


*2024- yil yanvar-iyun, kishi*

	2023- yil	2024- yil	<i>O’sish sur’ati, % da</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>872</b>	<b>841</b>	<b>96,4</b>
<i>hududlar:</i>			
Jizzax sh.	157	178	113,4
Arnasoy	24	24	100,0
Baxmal	70	68	97,1
G‘allaorol	103	122	118,4
SH.Rashidov	152	125	82,2
Do‘stlik	38	26	68,4
Zomin	86	93	108,1
Zarbdor	51	50	98,0
Mirzacho‘l	39	36	92,3
Zafarobod	29	26	89,7
Paxtakor	58	47	81,0
Forish	51	36	70,6
Yangiobod	14	10	71,4



## Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar- iyun



2024- yil yanvar- iyun oylarida Jizzax viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **49,3** % i farzandsiz, **28,8** % i bitta farzand bilan va **21,9** % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.


## AHOLI MIGRATSİYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)

2024- yil yanvar- iyun oylarida Jizzax viloyati bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni **3297** kishini. Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami **4510** kishini, migratsiya saldosini minus **1213** kishini tashkil etdi. 2023 yilning mos davrida minus **1069** kishi bo'lган.

## Jizzax viloyati bo'yicha ko'chib kelganlarning taqsimlanishi

2024- yil yanvar- iyun, ( kishi soni)



2024- yilning yanvar- iyun oylarida **3297** kishi ko‘chib kelganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib kelish koeffitsiyenti **4,4** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,3** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar- iyun oylarida **4,1** promille bo‘lgan).


### Jizzax viloyati bo‘yicha ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni

*2024- yil yanvar-iyun, kishi*

	Ko‘chib kelganlar			Ko‘chib ketganlar		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		viloyatning boshqa hududlaridan	xorijiy mamlakatlardan		viloyatning boshqa hududlariga	xorijiy mamlakatlarga
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>3297</b>	<b>3289</b>	<b>8</b>	<b>4510</b>	<b>4475</b>	<b>35</b>
<i>hududlar:</i>						
Jizzax sh.	944	944		653	651	2
Arnasoy	97	97		181	181	
Baxmal	242	242		575	575	
G‘allaorol	146	146		450	448	2
SH.Rashidov	371	371		612	609	3
Do‘stlik	152	152		294	290	4
Zomin	346	346		342	342	
Zarbdor	137	137		247	247	
Mirzacho‘l	310	302	8	252	239	13
Zafarobod	93	93		153	149	4
Paxtakor	250	250		311	308	3
Forish	135	135		308	304	4
Yangiobod	74	74		132	132	

## Jizzax viloyati bo'yicha ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

2024- yil yanvar-iyun, ( kishi soni)



2024- yilning yanvar- iyun oylarida **4510** kishi ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **6,0** promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilga nisbatan **0,4** promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar- iyun oylarida **5,6** promille bo'lgan).

## Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayrıldi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalikklar, patologik holatlari va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko'chib kelganlar soni** – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlari



organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

**Ko'chib ketganlar soni** – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

**Aholining migratsion o'sishi (farqi)** – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtaсидаги farqning absolyut miqdori.

**Demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'limi**

*Tel: 72 221-51-19*